



## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING SO'Z MINIMUMINI BELGILASH TAMOYILLARI

**Imamova Gu'lx'a'sem Turg'anbay qizi**  
*Nukus DPI Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi*

***Annotatsiya:** O'quvchilarning bog'lanishli nutqida voqea-hodisalarni mukammal ifoda eta olmasliklari ma'lum bo'lgani holda buning sababi ustida o'ylab ko'rilmayotganligi nutq o'stirish metodikasining og'riqli nuqtalaridandir. O'quvchilarning fikr ifodalashda xato-kamchiliklarga yo'l qo'yishi lug'at zahirasi va ulardan foydalana olish ko'nikmasining yetarli darajada shakllantirilmaganligidadir.*

***Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, so'zlar, o'qitish metodikasi, guruhlar.*

O'zbek tilining leksik qatlami xilma-xil bo'lib, u o'zida turli so'z guruhlarini jamlaydi. Mazkur leksik qatlamda jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy hayotdagi yangilanishlar bilan bog'liq o'zgarishlar aks etadi va bu o'zgarishlar "leksikaning faqat miqdor jihatdan emas, balki sifat jihatdan rivojlanishini bildiradi. "leksikadagi taraqqiyot, o'zgarishlar yangi lug'aviy birliklarning paydo bo'lishi va ma'lum lug'aviy birliklarning yo'q bo'lishi (iste'moldan chiqishi), so'zlarning yangi ma'nolar kasb etishi va ayrim ma'nolarning yo'qolishi kabi hodisalardan iborat bo'lar ekan", "o'zbek tilining izohli lug'ati"da berilgan 80 000 so'z va so'z birikmasi ichida o'zining 10dan ortiq ma'nosiga ega bo'lgan ko'p ma'noli so'zlar borligi, bundan tashqari, tilda umumxalq qo'llaydigan so'z va iboralar, turli sohalarga doir ko'plab atamalar mavjudligi hisobga olinsa, tilimizning leksikasi qay darajada boyligi ko'rinadi. Bu so'zlarsiz o'zbek tilida nutqiy faoliyatga kirishib bo'lmaydi. Ayonki, tilning asosiy lug'at zahirasidan turli muloqotlarda foydalana olishning asosiy sharti uni nutqqa kiritishdir. So'z va iboralarni rejali ravishda kichik yoshdagi bolalar nutqiga kiritish maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlanadi.

Shu tufayli boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'atidan o'rin olishi lozim bo'lgan so'zlarni belgilashga mas'uliyat bilan yondashish lozim. Ammo tildagi barcha so'zlar ham muloqot jarayonida bir xilda qo'llanilmaydi. Kichik yoshdagi o'quvchilarning o'z hayoti va faoliyati doirasida ehtiyoj sezgan so'zlarni o'zlashtirishi ko'zda tutiladi. Ularning hayotiy faoliyatini hisobga olgan holda savod o'rgatish jarayonidan boshlab narsalar va ularning sifatini, harakati va holatini ifodalovchi so'zlar o'rgatib boriladi. Bu so'zlar kichik yoshdagi o'quvchilarning o'zbek tili leksikasini o'zlashtirishlari uchun baza bo'lib xizmat qiladi.

Afsuski, boshlang'ich ta'lim davomida o'quvchilar o'zlashtirishi zarur bo'lgan so'zlar minimumi hanuzgacha belgilanmagan. O'quvchilarning so'z minimumi



belgilab berilmas ekan, ularning tildan egallagan nazariy bilimlarini to'g'ri baholash mumkin bo'lmaganidek, tildan amaliy foydalana olish ko'nikmalarini baholash me'yorini ham asosli deb bo'lmaydi. Hozirgi kunda o'qituvchilar o'quvchilar og'zaki nutqi (qayta hikoyalash, savollarga javob berish)da, yozma nutqda qaysi so'zlarni qo'llashlari shartligini bilmaydilar. Ular asoslanadigan biror me'yoriy hujjat yo'q. Kuzatishlarimiz asosida shuni aytish mumkinki, o'quvchilarni baholashda lug'at boyligi hisobga olinmaydi.

O'quvchilarning bog'lanishli nutqida voqea-hodisalarni mukammal ifoda eta olmasliklari ma'lum bo'lgani holda buning sababi ustida o'ylab ko'rilmayotganligi nutq o'stirish metodikasining og'riqli nuqtalaridandir. O'quvchilarning fikr ifodalashda xato-kamchiliklarga yo'l qo'yishi lug'at zahirasi va ulardan foydalana olish ko'nikmasining yetarli darajada shakllantirilmaganligidadir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari darslik matnidagi so'zlarning ma'nosini tushunishlari, to'g'ri talaffuz qilishlari, nutqlarida qo'llashlari uchun so'z minimumi belgilab olinishi zarur. So'z minimumiga kiritiladigan so'zlar o'quvchilarning faol lug'at zahirasi sanaladi.

O'quvchilar atrofidagi kishilar nutqida, radio va teleeshittirishlarda, kinolarda turli so'z va iboralarni eshitadilar, "o'qish kitobi" darsligi va "g'uncha" jurnalidagi badiiy asarlar matnini o'qiydilar, lekin bu so'zlarni nutqlarida qo'llashga ehtiyoj sezmaydilar. O'quvchilar ma'nosini tushunsa-da, nutqda qo'llamaydigan so'zlar ular uchun nafaol so'zlar sanaladi. Demak, o'quvchi faol lug'at zahirasi tashqari, nafaol lug'at zahirasi ham ega bo'lishi lozim.

Buning uchun o'quv darsliklari, ko'rgazmalar, tarqatma materiallar va sinfdan tashqari o'qishga tavsiya qilinadigan matbuot materiallari, radio, teleeshittirishlar, o'qituvchi nutqi asosida o'quvchilarning faol va nafaol lug'ati belgilab qo'yilishi zarur, deb hisoblaymiz.

O'quvchilarning faol lug'at zahirasi belgilash va ularni amalda qo'llash uchun tavsiya qilishda quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

1. O'qitishning muayyan bosqichida so'zni amalda qo'llashga ehtiyojni hisobga olish.
2. So'zlarning og'zaki nutq va adabiy-badiiy matnlarda qo'llanish darajasi.
3. So'zlarning tuzilishiga ko'ra bo'g'in-tovush tarkibining murakkablik darajasi.

O'quvchilarning faol lug'at zahirasi boyitish nafaol lug'at boyligini kengaytirish ta'limiy va hayotiy ehtiyoj sanaladi. Chunki nafaol leksik boylik badiiy asarlar, bolalar filmlari, radio va teleeshittirishlar mazmunini tushunishlari uchun





kerak bo'ladi. Ko'pincha o'qituvchilar, ayrim metodistlar badiiy asar matnida o'quvchilar tushunmaydigan so'zlarni bermaslik talabini ilgari suradilar. Ular bunday so'zlarning badiiy matn talabidan kelib chiqib qo'llanishini, amaliy ahamiyatini unutib qo'yadilar.

O'quvchilarning faol va nafaol lug'atiga kiritiladigan so'zlarni belgilab olish ular ustida olib boriladigan mashq turlarini ishlab chiqishga yordam beradi.

O'quvchilarning faol lug'atini tashkil etadigan so'zlar bilan nafaol lug'at ustida ishlash mashqlari farq qiladi. Maktablarda esa o'quvchilarning faol lug'ati bilan nafaol lug'aviy birlik ustida ishlash mashqlari bir-biridan farqlanmasdan so'zlarning ma'nosini izohlash bilangina cheklanilishi metodikaga xilofdir. Aslida faol lug'atga kiritiladigan so'zlar ustida ishlash mashqlari bosqichma-bosqich quyidagicha izchillikda doimiy ravishda tashkil etilishi zarur:

- 1) so'zlarning ma'nosi tushuntirish;
- 2) adabiy-orfoepik talaffuzi ustida mashq qilish;
- 3) faol so'zlarning imlosini bo'g'in-tovush, tovush-harf tahlili orqali o'rgatish;
- 4) faol so'zlar ishtirokida birikma va gaplar tuzdirish;
- 5) suhbatlar uyushtirish;
- 6) berilgan rasm va o'qilgan matn mazmunini qayta hikoyalatish;
- 7) faol so'zlar ishtirokida yozma ijodiy ishlar tashkil etish.

Nafaol lug'atga mansub so'zlarning ma'nosi adabiy tildagi varianti asosida izohlanadi. Nutqda esa ularning adabiy tildagi variantini ishlatish tavsiya qilinadi. Shevaga xos so'zlarning badiiy asar matnida uchrashini hisobga olgan holda ularni nafaol lug'at zahirasi kiritib borish zarur. Faol lug'aviy birliklar ustida ishlashda so'zlar orasidagi semantik aloqadorlik, bog'liqlikka asoslanish ularni o'zlashtirishni yengillashtiradi. Boshlang'ich sinflarda so'z va iboralar ustida ishlashda tematik tamoyilga va semantik aloqadorlikka, grammatik belgilariga ko'ra so'zlar guruhiga (ot, sifat, fe'l kabi) asoslanish ona tilini o'qitishning kommunikativ maqsadini amalga oshirish imkonini beradi. Boshlang'ich sinflarda grammatik belgilariga ko'ra bir turkumdagi so'zlar to'plamini hosil qilishga doir topshiriqlar o'quvchilarning faol lug'at zahirasi boyitishga yordam beradi.

Nutq til vositalaridan foydalangan holda inson tafakkurini, fikrini ifodalaydigan faoliyat turi bo'lib, inson kamoloti darajasini ayon etib turadi. Nutq o'stirish ona tilining turli sathlariga oid bilimlarni egallash jarayonida tilni amaliy o'zlashtirishdir. Nutq madaniyati tilning lug'aviy boyligini, grammatik qurilishini egallash orqali shakllanadi.



Boshlang'ich sinflarda qush, parranda, qovun, gul, daraxt kabilarning nomlarini o'quvchilar nutqiga kiritishda tabiatshunoslik fanidan olgan bilimlariga tayanish va tahlil uchun til materillarini shu darsliklardan tanlab, o'quvchilarni kuchli daraja, o'rta daraja va past darajaga ajratib, o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish va mustaqil ishlarni tashkil etish lozim. O'quvchilarning darajasiga qarab tanlangan materiallar asosida krossvordlar, rebuslar tuzish, "zanjir", "zinama-zina" o'yinlarini tashkil etish, o'quvchilarning qushlarning nomini eslab qolishlari uchun qushlarning rasmlari asosida ularning tashqi ko'rinishini tasvirlash mashqlaridan, qush nomlarini qatnashtirib uning xususiyatlari, foydali tomonlari haqida gaplar tuzdirish mashqlaridan foydalanish ikki fanning yuqori darajada o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Ona tilidan o'tilgan mavzuni, nazariy bilimlarni boshqa fan mashg'ulotlarida qo'llash yoki boshqa o'quv faoliyatlarida mustahkamlash ishlarini tashkil etish o'quvchilar lug'atini boyitishda muhim vazifa sanaladi. Masalan, 4-sinfda "ot - so'z turkumi" o'rganiladigan darsda o'quvchilarning oldingi bilimlarini aniqlash o'zlashtirish darajasiga ko'ra quyidagicha usulda tashkil etiladi: o'simliklar nomidan so'zlar guruhini tuzish topshirig'ini berish oldidan o'simlik nomlari ishtirok etgan matn tarqatiladi.

1. Mevalar bilan bog'liq jadvalni topshiriqlariga ko'ra to'ldiring.
2. O'zingiz bilgan meva nomlarini tarmoqlash usulida yozib chiqing.
3. Berilgan meva nomlarini tovush-harf tarkibiga ko'ra tahlil qiling.
4. jadvaldagi meva nomlari bilan belgi bildirgan so'zlarni biriktirib birikmalar tuzib yozing.

O'quvchilar har bir topshiriqning bajarilishi bo'yicha taqdimotga chiqdilar. Bu jarayonda ularning nutqi kuzatib borildi. O'rta va past daraja guruhidagi o'quvchilar ham taqdimotga chiqishga intildi va o'zlarining bilimlarini ota-onalari oldida namoyish eta oldi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bekimbetova, G. R. (2023, November). PRAGMATIC FOUNDATIONS OF TEACHING THE KARAKALPAK LANGUAGE. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 2, No. 11, pp. 86-90).
2. Bekimbetova, G. R. (2023, November). TEACHING THE KARAKALPAK LANGUAGE IN SCHOOLS WHERE EDUCATION IS CONDUCTED IN OTHER LANGUAGES. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 2, No. 11, pp. 91-95).





3. Temirbekova, A. (2021). INNOVATSIYALIQ PROTSESSLERDIN'TEORIYALIQ ASPEKTLERI. Интернаука, (5-2), 94-95.
4. Amina, T. (2022). TA'LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(7), 4-5.
5. Amina, T. (2021, December). The Importance of Daily Life Programs in the Karakalpak Language. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 285-288).
6. Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(11), 22-28.
7. Yuldosheva, N. E. (2021). UZBEK LANGUAGE SYNTAX RESEARCH METHODOLOGY. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2021(06), 370-380.
8. Bekimbetova, G. R. (2023). Opportunities for learning the Karakalpak language. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 1(1), 573-578.

